



TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNING ROLI

Ernazarov Narmet Saparbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank hisobi va auditi” kafedrası dotsenti.

G-mail: narmet.saparbayevich1962@gmail.com

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning asosiy masalalaridan biri ekanligini alohida qayd etish lozimdir. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida [1]”gi PQ-162-sonli Qarorlarini qabul qilinganligi raqamli bank xizmatlarining yangi tendensiyalari, xavf-xatarlar va ularni boshqarish strategiyalarini yaratadi. Ushbu qarorga asosan, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi belgilangan. Umuman olganda, raqamlashtirish tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste‘molchilar va tijorat mijozlari uchun moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar [2].

Bank innovatsiyalarini moliyaviy xizmatlar sohasidagi raqamli transformatsiyaga o‘tkazish raqamli texnologiyalar an‘anaviy bank biznesini tubdan o‘zgartirishga turtki bo‘ladi va yangi innovatsion yechimlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda [3].

Hozirda tijorat banklari tomonidan qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalarini bir shartli ravishda to‘rtta turda tasniflash mumkin. Bular ma‘lumotlarni qayta ishlash, vizual texnologiyalar, kommunikatsion, elektron texnologiyalardan tashkil topadi.


Aholining eng xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun elektron to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati barcha tijorat banklari, fond birjalari, ko‘p funksiyali markazlar, uy-joy kommunal xizmatlari, davlat xizmatlari veb-sayti va boshqalar tomonidan faol reklama qilinmoqda, chunki bu tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi hamda barcha subyektlarning tegishli xizmatlarning provayderlari va iste‘molchilari ularning o‘zlari virtual makonga izchil harakat qilmoqdalar. Butun dunyo bo‘ylab raqamli iqtisodiyotning jadal tug‘ilishi va rivojlanishi bozorning barcha ishtirokchilari o‘z faoliyati mazmuniga zarur tuzatishlar kiritishga shoshilinch

ehtiyojni belgilaydi. Tabiiyki, jamiyatning moddiy negizini shakllantirishning faol ishtirokchilaridan biri tijorat banklari ham chetda qolmadi.

Mamlakatimizda ham bugungi kunda tijorat banklari tomonidan “Uzcard” hamda “Humo” to‘lov tizimlarining milliy valyutadagi bank kartalari muomalaga chiqarilib, ularning infratuzilmasi kengaytirib borilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillar kesimida muomaladagi terminallar, bankomat va infokiosklar, to‘lov terminallari [4]



Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillar kesimida muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar, to‘lov terminallari orqali tushgan tushumlar to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, muomaladagi bank kartalari soni 2020-yilga nisbatan 46 073 524 bilan qariyb 2 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin, shuningdek, o‘rnatilgan to‘lov terminallari soni 2024-yilning oktabr oyi holatiga ko‘ra 429 359 tani tashkil etmoqda, o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni bo‘lsa 2024-yil holatiga ko‘ra 28 795 ta, to‘lov terminallari orqali tushgan tushumlar esa 2024-yilning yanvar oyi davomida 24 844 351 mln. so‘mni tashkil qilmoqda.

Yuqoridagi raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an’anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sohasida ham tub o‘zgarishlarni talab etmoqda. Raqamli bankingni rivojlantirish orqali bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun mobil banking, onlayn xizmatlar, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektni keng joriy etish zarur. 2026-yilga qadar mamlakatimizda raqamli bankingni yanada rivojlantirish

va zamonaviy bank texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, 2023-yilda mobil banking tizimidan foydalanuvchilar sonini 15 million kishiga, 2024-yilda esa 18 million kishiga yetkazish rejalashtirilgan. Innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish. Tijorat banklari mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va talablarini qondirish uchun doimiy ravishda yangi va innovatsion bank mahsulotlari hamda xizmatlarini ishlab chiqishi zarur. Bugungi kunda masofaviy bank xizmatlari, QR-kod to'lovlari, NFC texnologiyalari, virtual va qo'shimcha reallik kabi innovatsion yechimlar tobora ommalashib bormoqda. 2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda 100 dan ortiq turdagi innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari joriy etilgan. Ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish va innovatsion bank xizmatlarini keng miqyosda tatbiq etish banklarning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank innovatsiyalarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston banklari fintech sohasidagi yetakchi kompaniyalar, nufuzli moliya institutlari va innovatsion markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishi, qo'shma loyihalarni amalga oshirishi va xalqaro maydonlarda faol ishtirok etishi lozim. 2022-yilda O'zbekistonning yetakchi banklari tomonidan 30 dan ortiq xalqaro hamkorlik shartnomasi va memorandumlari imzolangan. Bunday xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va kengaytirish innovatsiyalar sohasida bilim va tajriba almashish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli Qarori.
2. Гонтар, А.А., Сазонов, С.П. Экономические методы обеспечения информационной безопасности кредитной организации // Управление экономическими системами: электрон. науч. журнал. -2016. - No 9. –С.- 6.
3. Sardana V., Singhania S. Digital technology in the realm of banking: A review of literature //International Journal of Research in Finance and Management. – 2018. – T. 1. – №. 2. – С. 28-32.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti ma'lumotlari – www.cbu.uz